



Muallif o'zi haqida:
1962-yili Toshkent shahrining
Labzak dahasida tug'ilganman.
Onam shoir Hamid Olimjonning
"Oygul bilan Baxtiyor" she'riy
ertagini yoddan aytib bersalar, jon
qulog'im bilan tinglardim.

Ilk mashqlarimni onam ko'rib
berganlar. Lekin to katta bo'lmagunimcha gazeta va
jurnallarda chop etilmagan.



Nega?..

Zahro Hasanova

Tahririyatga ishga kelayotib, avtobus bekatida pista chaqib o'tirgan o'quvchilarga ko'zim tushdi. Ularning oyog'i osti atrofdagilarning "havasini keltiradigan" darajada ivirsib bo'lgan edi. 12-14 yoshlardagi uch nafar o'quvchi bolaning ust-boshi binoyidek, yonida papkasi, qo'lida esa qadoqlangan qog'oz paketdagi pista. Ular pista po'chog'ini yerga tashlab atrofni to'zitayotganlari xayoliga ham kelmayotgani yuz-ko'zidan, o'zini tutishidan shundoqqina sezilib turardi. Nega?.. Kechagina shu bekatni tuman obodonlashtirish xizmatidagi farroshlar supurib-sidirib ketishayotganini ko'rib, quvongandim. Oradan bir kun o'tib, bekat yana pista po'chog'i-yu, qog'oz va boshqa chiqindilarga liq to'libdi. Jahlim chiqdi:

– Mana shu pista po‘chog‘ini biror qog‘ozga o‘rab, huv anavi – 10 metr naridagi axlat qutiga olib borib tashlasangiz bo‘ladi-ku, bolalarim, – dedim ularga.

Bolalar bir-birlariga qarab jim qolishdi.

– Har kuni shu bekatdan ota-onalaringiz, qo‘shnilaringiz, mahalla ahli va tengdoshlaringiz o‘qishga, ishga ketadilar. Bu ahvolni ko‘rib, hammaning ta‘bi xira tortib, kayfiyati buziladi-ku.

Bolalardan biri meni tushundi, shekilli, qo‘lidagi pistasini papkasiga solib, o‘rtoqlariga qaradi va “Yig‘ishtiringlar”, dedi. O‘rtoqlari darrov uning aytganini qilishdi...

Odamzod – tabiatning bir bo‘lagi. Tabiat xushhavo, atrof ozoda va go‘zal bo‘lsa, odamzod ham ana shu go‘zallik bag‘rida sog‘lom va ko‘rkam yashaydi. Tabiatning rang-barang jilvasidan quvonadi, kayfiyat oladi, ruhi tetiklashadi. Bularning hammasi kishiga ajib kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi. Ruhi tetik, sog‘lom odam esa yaxshi o‘qiydi, ezgu ishlarga qo‘l uradi, tog‘ni talqon qilishga qodir, bunyodkor inson bo‘lib voyaga yetadi. Biz esa sizlarni kelgusida har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lib ulg‘ayishingizni istaymiz.





1. Hikoya kimning nomidan aytilgan?
2. Hikoyadagi voqeaga o'z munosabatingizni bildiring.
3. Hikoya qahramonlariga ta'rif bering.
4. "Odamzod – tabiatning bir bo'lagi" deganda nimani tushunasiz?
5. Ayting-chi, hikoyadan ibrat olish mumkin bo'lgan qanday holat bor?



tahririyat – qo'lyozma matnlari ustida ishlab, nashrga tayyorlab berish bo'limi
ivirsib – betartib holga kelgan
jilva – tovlanish, tuslanish



Quyidagi iboralar qatnashgan gaplarni topib o'qing va mazmunini izohlang.

1. *Tog'ni talqon qilish*
2. *Ta'bi xira*

Hikoyadagi ikkinchi gapni o'qing va fikringizni bildiring.

Hikoya mazmuniga mos reja tuzing.



Hikoyadagi so'zlar ishtirokida so'zlar zanjirini hosil qiling.

Namuna: pista-axlat



Hikoyani o'qing. Shaxsini o'zgartirib, qayta so'zlab bering.